

Latipova Shaxnoza Botirovna
O'zbekiston, Yakkasaroy tuman 48-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Informatika va Axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

MAKTABLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDAGI ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ШКОЛЕ

MODERN APPROACHES TO TEACHING COMPUTER SCIENCE AND INFORMATION TECHNOLOGY AT SCHOOL

Annotatsiya: Ushbu ilmiy nashrda maktab o'quvchilariga informatika fani o'qitishning zamonaviy yondoshuvlari, darslarni zamonaviy elektron ta'lim resurslaridan foydalanagana holda tashkil etish metodlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar:

Informatika, axborot texnologiyalari, elektron axborot-ta'lim muhiti, innovatsiya, online ta'lim, kompetensiya.

Аннотация: В данном научном издании рассматриваются современные подходы к преподаванию информатики школьникам, методы организации уроков с использованием современных электронных образовательных ресурсов.

Ключевые слова: Информатика, информационные технологии, электронная информационно-образовательная среда, инновации, онлайн-образование, компетентность.

Abstract: This scientific publication discusses modern approaches to teaching computer science to schoolchildren, methods of organizing lessons using modern electronic educational resources.

Key words: Informatics, information technologies, electronic information-educational environment, innovation, online education, competence.

Mustaqil Respublikamizda olib borilayotgan islohatlar, siyosiy, iqtisodiy, ilmiytexnikaviy va madaniy, sohadagi o'zgarishlar maktab ta'limi tizimida ham o'z aksini topmoqda. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tarbiya tizimini yaratish, shu asosida ta'lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish ta'lim sistemasining eng dolzarb vazifasiga aylandi. Bu esa barcha mutaxassisliklar qatori informatika bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini oshirishni ham taqozo yetadi. Ushbu dolzarb masalalar Informatika fan dasturi mazmunini ham o'zgalashtirishga ta'sir etadi. Ta'lim tizimida Informatikani o'qitish metodikasi fanining o'qitilishi pedagog kadrlarni intellektual salohiyatga ega, mustaqil fikrovchi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari uchun sharoit yaratibgina qolmay, kasbiy faoliyatlarida ta'lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etishda ulardan samarali

foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllanirishiga asos bo'ladi. Yuqoridagi fikrlar Informatika fanining asosiy mazmunini belgilashga yordam beradi.

Hozirgi davrda olimlar innovatsion ta'lim texnologiyalari tarkibini samarali usul va vositalar asosida tizimlashtirib, ularning tub mohiyatini ochib berishga erishmoqdalar. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborot-ta'lim muhitini shakllantirishga va innovatsion darslarni tashkil etishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Zamonaviy o'qituvchining jamiyatni axborotlashtirish sharoitida ishlashga tayyorligini belgilab beradigan quyidagi axborot-kommunikativ salohiyatlar muhim hisoblanadi: kasbiy vazifalarni informatikaning zamonaviy vositalari va metodlarini axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda bajara olish malakasi; kasbiy faoliyatda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish borasida tayyorgarlik darajasini real aks ettiruvchi, shakllanib ulgurgan shaxsiy sifatleri; vaziyatni to'g'ri baholash va pedagogik faoliyatda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda samarali qarorlar qabul qila oladigan predmet-maxsus bilimlarni tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lish.

Respublikamizda, yosh avlodning o'z faoliyatini rejalashtirishi, qo'yilgan masalani yechishga zarur bo'lgan axborot topa olishi, o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayonni informatsion modelini qura olishi va yangi texnologiyalardan unumli foydalana olishi kabi malakalarga ega bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Zamonaviy kompyuterlarni boshqara olish malakasiga ega bo'lish har bir yosh avlodga zarurdir. Shuning uchun, o'rta maktab Informatika fanining birinchi va muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda aniq bir fikrlash usulini shakllantirishdir. Informatika - bu umumta'lim fanidir va unga tizimli nuqtai nazardan qarash kerak, bu o'rta ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari bilan belgilanadi. Informatikani fan sifatida qabul qilinishining qiyinchilik tomoni shundaki undagi masalalar fizika, matematika, astronomiya fanlariga ham tegishlidir va informatika fanlararo aloqadorlikka ega. Bugungi kunda bolalar faqatgina kompyuter mavjudligini bilish bilan cheklanib qolmasliklari kerak, u haqida faqatgina tasavvurga ega bo'lmay, balki u erkin ishlashlari, ushbu texnikani qo'llashni bilishlari kerak. Informatika - bu

ob'ektlar yoki jarayonlar haqida emas, balki ularni avtomatlashtirish, yaratish va faoliyatining usullari, vositalari va texnologiyalari haqidadir. Bu fan nafaqat uning chuqur o'rganilishini, balki o'z bilimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni amaliy qo'llay olishni hamda olingan bilimlarni optimallashtirishni ta'minlaydi. Informatika darslarida dunyoni tizimli qabul qilish, tabiatdagi va ijtimoiy sohalardagi xodisalarni umumiy aloqadorligini isloh qilish tasavvurlari rivojlanadi. Uning darajasi asosan axborotni tezda qayta ishlash va unga asoslanadigan qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadi, bu o'quvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlar talab qiladi. O'qituvchilardan esa barcha yangi usullar va ta'lim vositalaridan foydalanishni. Maktab informatika fanining mazmuni muayyan darajada fanning rivojlanish darajasiga va jamiyat talablariga javob berishi kerak. Xisoblash texnikasining rivojlanishi, birinchi navbatda shaxsiy kompyuterlar va ularning dasturiy ta'minotining tez suratlarda yangilanishi inson faoliyatining barcha sohalariga tarqalishiga sababchi bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida informatika fanini bolalarga mukammal darajada etkazib bera oladigan, yuqori sifatli axborot texnologiyalari bilan o'qitishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash zarurligini ko'rsatmoqda. Yangi kompyuter texnologiyalari paydo bo'lishi, shuningdek, informatika fanlari ta'limi doirasida ta'lim mavzularining kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Kompyuter texnologiyalari shu darajada tez rivojlanmoqdaki ta'lim qanchalik harakat qilmasin undan bir qadam orqada qoladi. Xususan, ACM va Compyuter Science kabi qo'mitalarning yakuniy xulosalariga ko'ra informatika fanini o'qitishda bir qancha mavzular ahamiyatli deb topilgan va bunda so'nggi yillarda amalga oshirilgan texnik o'zgarishlar hisobga olingan Informatika fani jamiyatni yanada rivojlantirish jarayonlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatning umumiy salohiyatini va uni rivojlantirish istiqbollarini belgilovchi omillarga aylanmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish - zamonaviy sivilizatsiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Informatika fani tabiat va jamiyatdagi axborot va axborot jarayonlari bo'yicha asosiy texnik jihatdan fundamental fanga aylanmoqda. Bundan buyon maktab informatika kursining umumiy ta'lim va amaliy ahamiyati tobora o'sib boraveradi. Bu kurs katta gumanitar salohiyatga ega. U yosh avlodni axborot jamiyatidagi samarali

faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Informatika o`qitish metodikasi pedagogikaning informatika fanini umumta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari informatika va axborot texnologiya fanlarini o`qitish qonuniyatlarini tadqiqot qiluvchi bo`limi hisoblanadi. Informatika fanini o`qitish quyidagi maqsadni ko`zda tutadi: o`quvchilarga informatika fanini ijodiy o`qitish va o`zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalari bilan qurollantirish; o`quvchilarni informatika sohasi bo`yicha turli tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o`tkazishga tayyorlash; o`quvchilarni ta`lim sohasini axborotlashtirishning yo`llari va ulkan istiqbollari haqida tasavvurlarini rivojlantirish hamda chuqurlashtirishdir. Ta`limda axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llaganda o`quvchi eshitish, ko`rish, ko`rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo`ladi. Ta`lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma`lum bir shart – sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot kommunikatsion ta`lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogic mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir. Yuqorida sanab o`tilgan vazifalardan ko`rinib turibdiki, ta`lim muassasalari o`quvchilarini mustaqil bilim olishiga yo`naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga o`rgatish va doimiy ravishda faolligini oshirib borish lozim. O`quv jarayonida kompyuter texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ta`lim jarayonini tashkil qilish ta`lim samaradorligigi ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta`lim muassasalarida o`quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to`g`risida”gi 824-son qarori.
3. Tashpulatov H. B. PECULIARITIES OF USING MENTAL MAP IN THE PROCESS OF FORMING ALGORITHMIC THINKING IN THE PROCESS OF TEACHING FUTURE TEACHERS IN MATHEMATICS AND COMPUTER SCIENCE //Thematics Journal of Education. – 2022. – T. 7. – №. 5.

4. Tashpulatov X. ОБЪКТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ПРОГРАММИРОВАНИЕ КАК ЭФФЕКТИВНОЕ СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В8. – С. 2268-2275.